

**MILLATNING O'CHMAS YOG'DUSI (HAZRAT USMONXON ALIMOV
HAYOTIGA BAG'ISHLANGAN)**

Jumabekova Zilola Saitmurod qizi

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
"Islomshunoslik" ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

Tel raqami: +998933764700

*Ilmiy rahbar: **Mirodil Xaydarov***

*O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi
"Ijtimoiy fanlar va huquq" kafedarsi dotsenti, (PhD)*

Anotatsiya: *Ushbu maqolada dinimiz, milliy ma'naviyatimiz ravnaqi yo'lida beminnat xizmat qilgan taniqli ulamo, jamoat peshqadami, ma'rifatparvar marhum muftiy Usmonxon Alimov hazratlarining ibratli hayot yo'li, ilmiy-ijodiy va ijtimoiy faoliyati, insoniy fazilatlarini hamda uning hamkasablari, xalq orasidagi samimiy xotiralari o'rin olgan.*

Kalit so'zlar: *Muftiy, imom-xatib, e'tiqod, vakil, tariqat, madrasa, murid, ulamo, qishloq.*

Mamlakatimizda sog'lom e'tiqod va yuksak ma'naviyatli yoshlarni tarbiyalash, vatanpatvarlik ruhida voyaga yetkazish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Inson umri yillar bilan emas balki ezgu amallar bilan o'lchanadi. Ilm yo'lidagi izlanishlar va o'rganishlar bir necha yillar davomida tinimsiz mehnat, mashaqqatli ilmiy safarlar, tunlarni tonglarga ulash bilan erishiladi. Mana shunday insonlardan biri 1950 yili 1 yanvar Samarqand viloyati, Ishtixon tumanida tug'ilgan marhum Muftiy Usmonxon Alimov Temirxon o'g'li.

Marhum Muftiy Usmonxon Alimov o'rta maktabni bitirgach, 1982-1983 yillarda Buxoro shahridagi Mir Arab madrasasida, 1987-yilda "Imom Buxoriy" nomidagi Toshkent islom institutida, 1989-1990 yillarda esa Marokashning "Karaviyn" dorilfununida tahsil olgan. Ko'p muddatli ta'limdan so'ng hazrat o'z faoliyatini Samarqand viloyatining turli masjidlarida imom-noibi va imom-xatib lavozimlarida davom ettirdi.

Hazratning oiladagi ma'naviy muhiti, tarbiya olgan ilm bulog'i haqida to'xtalsak, olimning otasi Temirxon eshon O'zbekistonda keng tarqalgan Naqshbandiya tariqati silsilasining davomchisi – murshidlaridan biri edi. Uning tug'ilib yashagan davri XIX-XX - asrlar Chor Rossiyasining bosqini, dindorlarga qarshi olib borilgan siyosatga to'g'ri keldi. Shunda ham ilmga, dinga bo'lgan ixlosi also orqaga chekinmadi. Alloh taolaga chinakam ixlos bilan o'zidan keyin elga, vataniga xizmat qiladigan sodiq bir merosxo'r tarbiyalashda astoydil harakat qildi.

Umrining oxirida farzand va muridlarini yoniga yig'ib, bu maqomni hazrat Usmonxon Alimovga topshirgan edi. Usmonxon Alimov Payg'ambarimiz (s.a.v.) ning o'ttiz ikkinchi avlodlaridan sanalib, islom dini ta'limotini keng ko'lamda tarqalishiga sababchi bo'ldilar. Ularning tariqatdagi shajarasi Maxdumi A'zamxon yani Ho'ja Ahror valiyning muridiga borib ulanadi.

Usmonxon Alimov hayotlik vaqtlarida olimlarga, ustoz va shogirdlarga bo'lgan ehtiromi yoshlarga beqiyos o'rnak bo'ladigan darajada edi. Yurtimiz olimlaridan Shayx Abdulaziz Mansur marhum Usmonxon Alimovga Toshkent islom institutida bir muddat dars bergan. Davrlar o'tib Usmonxon Alimov muftiy bo'lganlarida dars bergan ustozlari Shayx Abdulaziz Mansurga nisbatan xech qachon ismlari bilan emas, balki doim ustoz deb murojaat qilgan. Shuningdek, Usmonxon Alimov Shayx Abdulaziz Mansur qalamiga mansub "Sahih-al Buxoriy" hadis to'plamiga muqaddima yozib berganlari esa ikki olimning bir-birlariga bo'lgan o'zaro hurmat – ehtirom namunasi deb tushunish mumkin.

Usmonxon Alimov yosh olimlarni qo'llab-quvvatlash va ularga peshqadam ustoz sifatida marhum Yorqinjon domla Fozilov bilan hammualliflikda "Sunnat va Hadis" kitobini nashr etishdi. Hozirgi kunda hazratning bu turdagi kitoblari xalq tomonidan sevib mutolaa qilinmoqda. Bu esa olimning ilm dunyosida o'zidan keyin katta ma'naviy xazina qoldirib ketganini ko'rsatadi. Ustoz doim kitobxonlikka targ'ib etar, dunyo va oxirat saodatini kitobda, ma'rifatda deb bilgani bois katta-kichikni doim mutolagaa undar edi.

Kunlarning birida ulamolar ishtirokida o'tkazilgan katta majlisda marhum, sobiq Toshkent shahar bosh imom-xatibi Anvar qori Tursunov Ho'ja Ahror Valiy qalamiga mansub quyidagi baytni o'qib, sharhlaydi:

To bu maniy, dar Yamani – peshi mani,

Tu be maniy, peshi maniy – dar Yamani.

Mazmuni: "Agar sen Yamanda yurgan bo'lsang ham, ruhan men bilan birga bo'lsang, seni yonimda yurgandek his qilaman, Agar sen ruhan men bilan birga bo'lmasang, yonimda yurgan bo'lsang ham, seni huddi uzoq Yamanda yurgandek his qilaman".¹

Mazkur bayt O'zbekiston musulmonlari irodasi raisi, marhum muftiy Usmonxon Alimovga yoqib qolib, Anvar qoridan shuni yozib berishini so'raydi. Oradan ikki-uch kun o'tib, Anvar qori telefon orqali baytni takror aytib, muftiy hazratlariga yetkazadi. Bundan ko'rinib turibdiki, hazrat hayotda ulug' zotlarning purhikmat so'zlariga, go'zal baytlariga oshiq bo'lganlar va uni kimdan eshitsalar darhol hayotlariga tadbiq etishga shoshganlar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: "Jamiyatimizning ma'naviy asoslarini mustahkamlash, madaniyat sohasini rivojlantirish, ilmiy-ijodiy

¹ E.Nishonov. Anvar qori Tursunov.Zamondoshlari xotirasida.-Toshkent:"Shamsuddinxon Boboxonov",2021.-B.80.

tashkilotlar, muhtaram ziyolilarimizni faoliyatini qo'llab-quvvatlash ham biz uchun ustuvor yo'nalishlardan biri bo'ladi, deya ta'kidalagan edi.

Prezidentimizning O'zbekiston musulmonlari irodasi raisi, marhum muftiy Usmonxon Alimovga bo'lgan hurmat-ehtiromi hali viloyat hokimi faoliyati davrida shakllangan edi. Keyinchalik Prezidentlik davrida ham muftiy hazratlari bilan diniy-ma'rifiy sohada amalga oshirilishi kerak bo'lgan masalalarda fikr almashib, yelkama-yelka turib soha rivojiga katta xissa qo'shdilar. Usmonxon Alimov muftiylik davrida yurtimiz masjidlarida qayta qurish va ta'mirlash, qabristonlarni obod etish ishlariga katta e'tibor qaratdi. Imomlar malakasi oshirildi. Haj va umra masalasidagi xalqaro hamkorlik va boshqa tashkiliy ishlar yangi bosqichga ko'tarildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning qarori bilan 2020 yil 6 yanvarda 70 yoshni qarshi olishi munosabati bilan "El-yurt hurmati" ordeni bilan taqdirlandi.²

Muftiy Usmonxon Alimov nafaqat o'zbek xalqi, balki butun Markaziy Osiyo musulmonlarining faxri, dunyo ulamolari orasida o'zining yuksak mavqeiga ega zabardast olim edi. Hazrat 2012 yili Diniy idora tarixida ilk bor Islom olami uyushmasi ta'sis majlisining a'zosi hamda Butun dunyo ulamolar kengashi a'zosi etib saylangan. 2019 yil "Dunyoning eng nufuzli 500 musulmoni" ro'yxatidan munosib o'rin egallagan. 10 yildan buyon ushbu ro'yxatdan mustahkam joy olib kelmoqda.³

Shuningdek, hazratning barakali ijodiga nazar solsak, olimning yigirmadan ortiq kitob va yuzdan ziyod ilmiy-ommabop maqola muallifi hisoblanadi, shuningdek, teleradio dasturlarda ham dolzarb mavzularda chiqishlar qilgan.

Hazratning "Tafsiri Irfon", "Imom Buxoriy – muhaddislar sultoni", "Imom Buxoriy barakoti", "IX-X asrlarda Samarqandda kalom ilmining rivojlanishi", "Hazrati Imom", "Yoshlar – kelajagimiz", "Rasulullohning muborak vasiyatlari", "Rasululloh mo'jizalari", "Oilada farzand tarbiyasi", "So'ragan edingiz" kabi nomlarda chop etilgan asarlari kitobxonlatr tomonidan sevib o'qiladi.⁴

Usmonxon Alimov hazratlari yoshlar tarbiyasi borasida o'z asarida: "Muqaddas dinimiz ta'limotida farzand Alloh taolo insonga bergan eng ulug' ne'matlardan bo'lish barobarida, u omonat hamdir" deydi.⁵

Fazilatli Usmonxon Alimov hazratlarining bir necha diniy-ma'rifiy asarlari va yuzlab ilmiy-ijodiy maqolalarini nashr etisda qilgan xizmatlarini inobatga olib, 2021 yilning 3-may kuni O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi faxriy doktori unvoni berildi.

Usmonxon Alimov umrining so'nggi yillarida Moskvada o'pka va qon-tomir kasalliklari, o'pka pnevmoniyasi bo'yicha olamdan ko'z yumdi. Bu qayg'uli voqea

² <https://uzsmart.uz/savol-javob/view/181.html>. [Murojat sanasi: 08.04.2026].

³ <https://uzsmart.uz/savol-javob/view/181.html>. [Murojat sanasi: 13.03. 2026].

⁴ [Usmonxon Alimov haqida](#). [Murojat sanasi:14.03.2026].

⁵ Usmonxon Alimov.Oilada farzand tarbiyasi.-Toshkent: "Movrounnahr" nashriyoti,2019 y -B.4.

2021 yilning 15-avgust kuni bo'lgan edi. Marhumning jasadi O'zbekistonga qaytarib olib kelindi va 16-avgust kuni Samarqand viloyati, Ishtixon tumani Orlot qishlog'i "Eshoni Temirxon To'ra" (avvalgi "Orlot") jome masjidida janoza namozi va ta'ziya marosimlari bo'lib o'tdi.

Bu voqea nafat o'zbek xalqini balki din va davlat vakillar, ilm ahllari, xalqaro doirada u kishini hurmat-ehtirom bilan tanigan kishilarni ham qayg'uga soldi.

Jumladan, Checheniston rahbari Ramzan Qodirov Usmonxon Alimovning vafoti munosabati bilan hamdardlik bildirib, muftiyning o'limi haqidagi xabarni qayg'u bilan qabul qilganini bildirdi.⁶

Marokashlik olim professor-Hamid Lahmar muftiy Usmonxon Alimovni xotirlab: "Men Ukishini 1990 yillardan beri taniyman. U kishi Marokashning Fas shahriga kelganlarida birinchilardan bo'lib kutib olganman. U kishini sakkiz oy uyimda mehmon qilib, arab tilidan saboq berganman. So'ngi bor 2007-yil Toshkent shahrida uchrashgan edik, deydi".⁷

Albaniyalik professor Imom Romiz Mustafo Zako'iy: "Alloh taolo muftiy Usmonxon Alimov hazratlarini siddiqlar va sodiqlar bilan birga qilsin", deya hamdardlik xabarini qoldirgan.

Xulosa qilib aytganda, Muftiy Usmonxon Alimov o'zbek millatining zabardast olimi va el qadrlagan ulomosi edi. U o'zining yozgan barcha asarlarini zamon talablariga mos ravishda, yoshlarga tushunarli va oson uslubda yetkazib bergan. Ilmiy merosi nafaqat diniy bilimlar, balki ma'naviyat, axloq va tarbiyaga oid qimmatli g'oyalarga boydir. U o'z hayoti davomida ilmni xalq orasida keng targ'ib qilishga, yosh avlodni vatanparvarlik va milliy qadriyatlarga sadoqat ruhida tarbiyalashga alohida e'tibor qaratdi. Muftiy Usmonxon Alimov nafaqat olim, balki fidoyi ustoz, maslahatchi va samimiy inson sifatida ham kattayu kichikning suyukli va hurmatli ustoziga aylandi. Uning xotirasi, ma'naviy merosi va insoniy fazilatlari bugun ham, kelajakda ham o'zbek xalqi uchun yo'l ko'rsatuvchi yorug' chiroq bo'lib qoladi.

Marhum Usmonxon Alimov xotirasiga maqola muallifidan she'riy bag'ishlov:

Hazrat

*Allohning Muqaddas oyatlaridan,
Elimga tinimsiz yog'du yog'ilar.
Robimning cheksiz rahmatlaridan,
O'lkamga ilmdak ne'mat berilar.*

Yurtimdan chiqdi Usmoniy bir Zot,

⁶ <https://daryo.uz/2021/08/16/ramzan-qodirov-muftiy-usmonxon-alimov-vafoti-munosabati-bilan-hamdardlik-bildirdi/>. [Murojat sanasi: 13.03.2026].

⁷ <https://nasafziyo.uz/index.php?newsid=5378> .[Murojat sanasi: 13.03.2026].

*Haq deya yurt deya yashagani rost.
Rahmatiga olsin mehribon ul Zot,
Undan qoldi bizga ulkan bir bisot.*

Zilola Saidiya.

Foydalilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. E.Nishonov. Anvar qori Tursunov.Zamondoshlari xotirasida.- Toshkent:"Shamsuddinxon Boboxonov",2021.-b.202.
2. Usmonxon Alimov.Oilada farzand tarbiyasi.-Toshkent: "Movrounnahr" nashriyoti,2019 y - 460.b.
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tafsiri Hilol.-Toshkent:"Hilol nashr",2021 y-b.425.

Internet saytlar:

1. <https://daryo.uz/2021/08/16/ramzan-qodirov-muftiy-usmonxon-alimov-vafoti-munosabati-bilan-hamdardlik-bildirdi/>. [Murojat sanasi: 13.03.2026].
2. <https://nasafziyo.uz/index.php?newsid=5378> .[Murojat sanasi: 13.03.2026].
3. <https://uzsmart.uz/savol-javob/view/181.html>. [Murojat sanasi: 13.03. 2026].
4. [Usmonxon Alimov haqida](#) . [Murojat sanasi:14.03.2026].